

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ VA SUVXO'JALIGI
VAZIRLIGI**

TOSHKENT IRRIGATSIYA VA MELIORATSIYA INSTITUTI

«O'ZBEK TILI VA CHET TILLARI»KAFEDRASI

**O'ZBEK TILI FANIDAN MUSTAQIL
ISHLARNI BAJARISH**

(1-bosqich rus guruh talabalari uchun)

**USLUBIY
KO'RSATMA**

Toshkent-2015


**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ VA SUVXO'JALIGI
VAZIRLIGI**

TOSHKENT IRRIGATSIYA VA MELIORATSIYA INSTITUTI

«O'ZBEK TILI VA CHET TILLARI»

KAFEDRASI



**O'ZBEK TILI FANIDAN MUSTAQIL
ISHLARNI BAJARISH**

(1-bosqich rus guruh talabalari uchun)

USLUBIY KO'RSATMA



Toshkent-2015

Ushbu uslubiy qo'llanma institutning ilmiy - uslubiy Kengashining 2015- yil -mayda bo'lib o'tgan 4- sonli majlisida ko'rib chiqildi va chop etishga tavsiya etildi.

Mazkur uslubiy qo'llanma 1-bosqich nomilliy guruh talabalarning mustaqil o'qishlari uchun mo'ljallangan bo'lib, talabalarning erkin fikrlashlari, mustaqil fikr hosilasini og'zaki va yozma shaklda adabiy til me'yorlari asosida to'g'ri ifodalay olishlariga so'zlarni to'g'ri tanlash va nutqda to'g'ri qo'llash sirlarini egallashga, imlo savodxonligini oshirish, so'z boyligini kengaytirishlarida yozma va og'zaki nutqlarini rivojlantirishda hamda shular bilan bir qatorda mustaqil ishlarni bajarishlarida va tashkil etishlarida yaqindan yordam beradi..

Tuzuvchi: Y.I. Qurbanova, dots.

Taqrizchilar: N.Husanov –TMI professor, filologiya fanlari doktori
«O'zbek va rus tillar» kafedrasini mudiri,

K.N.Rahimova – TIMI, filologiya fanlari nomzodi, dots

Kirish

Ushbu uslubiy qo'llanma talabalarning o'zbek tilidan egallagan bilim va ko'nikmalarini mustahkamlash va yanada kengaytirish, tanlagan mutaxassisliklari doirasida davlat tilini puxta bilishlariga yordamlashish, nutqlarini kasbiy atamalar bilan boyitish, o'zbek tilidan yuqori darajada nutqiy savodxonlikni ta'minlashda, talabaning kundalik faoliyati hamda turmushida zarur bo'lgan nutqiy mavzularda o'zbek tilida mustaqil so'zlay olishlari va yozishlari, mutaxassislikka oid turli nutq uslublarida matn tuza olishi, uni o'zgartira bilish ko'nikmalari doirasida og'zaki va yozma nutqini o'stirish, turlicha ko'rinishdagi matnlarni erkin tuza olish ko'nikmalarini o'stirishda yaqindan yordam beradi. Matn ustida ishlash matn yaratish nomilliy guruhlarda o'zbek tili mashg'ulotlarining tarkibiy qismiga aylanmog'i kerak. Talabalar kuzatgan, eshitgan, o'qigan, bilgan, tasavvur qilgan, narsa, voqea- hodisalarini og'zaki va yozma shakillarida maqsadga muvofiq ravishda to'g'ri, ixcham, mazmundor va badiiy tasvirly olishlari yoki hikoya qila olishlari zarur.

Metodik qo'llanmada berilgan mashqlar, topshiriqlar, faol so'z va iboralar, turli mavzudagi matnlar talabalarning so'z boyligini oshirish, o'zbek tilining boy ifoda vositalaridan maqsadga muvofiq, to'g'ri foydalana olish ko'nikmalarini shakillantirishni ko'zlab tuzilgan.

Matnlar uslub jihatdan rang-barang bo'lganligi uchun badiiy, publistik, ilmiy va rasmiy matnlardan na'munalar berildi muhokama tarzidagi matnlar yaxshilik va yomonlik, mehnatsevarlik va ishyoqmaslik, halollik va tekinxo'rlik, to'g'rilik va egrilik, yaxshi so'z va yomon so'z, do'stlik va dushmanlik, botirlik va qo'rqqoqlik, odob va odobsizlik, qadir-qimmat va qadirsizlik, sabr-qanoat va sabrsizlik kabi mavzularda bo'lib xalq maqollaridan unumli foydalanilgan holda tuzildi.

Mustaqil O'zbekiston

Inson farzandi avvaldan qayerda tug'ilishi, qay maskanda dunyoga kelishini, qayerda makon tutishini bilmaydi. Vatan insonning yozig'iga bitiladi. Bugun jahonning qaysi burchagida bo'lmaylik "Vataning qayer?", desalar, g'urur bilan o'ktam ohangda javob beramiz "O'zbekiston! Ozod O'zbekiston!" Shu-ozod O'zbekiston degan kalimaning o'zi bizning kimligimiz, qanday xalq ekanligimizni belgilab beradi. Qadri baland or-nomusini saqlagan, o'z kelajagini o'zi yaratish yo'lini tanlagan millat ekanligimiz namoyon bo'ladi. 1991 yil 31 avgust kuni O'zbekiston o'zining milliy mustaqilligini rasmiy ravishda e'lon qildi. 1991 yil 18 noyabr kuni Respublika Oliy Kengashining navbatdan tashqari o'tkazilgan VII sessiyasida davlatimiz bayrog'I tasdiqlandi. 1991 yil 16 dekabrda Turkiya davlati O'zbekiston Respublikasi⁸ mustaqilligini birinchi bo'lib tan oldi. 1991 yil 21 dekabr kuni O'zbekiston MDH tarkibiga kirdi. 1991 yil 29 dekabrda o'tkazilgan umumxalq saylovida ko'pchilik ovoz bilan (86,2%) Islom Karimov O'zbekistonning birinchi prezidenti etib saylandi. 1992 yil 28 yanvar "O'zbekiston havo yo'llari" milliy aviokompaniyasini tashkil etish to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni e'lon qilindi. 1992 yil 2 mart O'zbekiston Respublikasi BMTga a'zo bo'ldi. 1992 yil 2 iyulda Respublika Oliy Kengashining X sessiyasida davlat gerbi tasdiqlandi. 1992 yil 8 dekabrda Respublika Oliy Kengashning o' ikkinchi chaqiriq XI sessiyasida O'zbekiston Respublikasi konsitutsiyasi qabul qilindi. 1992 yil 10 dekabrda Respublika Oliy Kengashining XI sessiyasida davlat madhiyasi tasdiqlandi. 1992 yil 16-17 fevralda O'zbekiston Iqtisodiy hamkorlik tashkilotiga a'zo bo'ldi. 1993 yil 2 mart kuni Vazirlar Mahkamasi "Navro'z umumxalq bayrami to'g'risida"gi qarorni qabul qildi. 1993 yil 28 sentabr Islom Karimov BMTning Bosh Assambleyasining 48-sessiyasida nutq so'zladi. 1993 yil sentabrda O'zbekiston Xalqaro Moliya korporatsiyasiga a'zo bo'lib kirdi. 1993 yil 26 oktabrda O'zbekiston Respublikasi YUNESKOga a'zo bo'ldi. 1994 yil 14 oktabrda V Respublikasi xalqaro politsiya-Interpol tashkilotiga a'zo bo'ldi. 1995 yil yanvarda Toshkentda Xalqaro qizilxoch qo'mitasining Markaziy Osiyo mamlakatlari uchun doimiy vakolatxonasi ochildi.

1996 yil 19 iyulda Asakadagi avtomobil zavodining xalqaro taqdimot marosimi bo'lib o'tdi. 2001 yil 15 iyunda O'zbekiston Respublikasi Shanxay hamkorlik tashilotiga a'zo bo'ldi. 2006 yil 24-25 yanvar kunlari O'zbekiston prezidanti Islom Karimov Rossiyaning Sank-Peterburg Shahrida bo'lib, Yevroosiyo iqtisodiy hamjamiyatga a'zo mamlakatlar rahbarlarining Davlatlar aro Kengashida ishtrok etdi. Bunda O'zbekiston Respublikasi mazkur tashkilotga rasman a'zo bo'ldi.

Vatan deganda ko'pchilik oddiygina bir hovuch tuproqni ko'rsatadi. Albatta, Vatan tuprog'i muqaddas, shu bilan bir qatorda, men uchun Vatan tuprog'idan ko'tarilgan, ko'zga ko'rinmas chang zarralari ham, unib chiqayotgan maysa ham muqaddasdir. Vatan atamasi ona Yurt ma'nosini bildiradi. Shu ma'noda, o'zbek millatining Vatani — O'zbekiston Respublikasi! Bu o'rinda davlat va Vatan ifodasini ayni bir ma'noda: O'zbekiston Respublikasi deganda Vatanni, Vatan deganda O'zbekiston Respublikasini idrok etamiz.

Ko'p jahongir ko'rgan bu dunyo,
Hammasiga guvoh yer osti.
Lekin do'stlar, she'r ahli aro
Jahongiri kam bo'lgan, rosti.
Besh asrki, nazmiy saroyni
Titratadi zanjirband bir sher,
Temur tig'i yetmagan joyni
Qalam bilan oldi Alisher.
Dunyo bo'ldi chamanim manim,
O'zbekiston - Vatanim manim.

(A.ORIPOV).



DAVLAT GERBI

"O'zbekiston Respublikasi Davlat gerbi to'g'risida"gi Qonun 1992 yil 2 iyulda O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining X sessiyasida qabul qilingan.

O'zbekiston Respublikasining Davlat gerbi gullagan vodiya uzra charaqlab turgan quyosh tasviridan hamda so'l tomonida bug'doy boshloqlari, o'ng tomonida ochilgan paxta chanoqlari suvrati tushirilgan chambardan iborat.

Gerbning yuqori qismida respublika jipsligining ramzi sifatida sakkiz qirrali yulduz tasvirlangan: sakkiz qirra ichida joylashgan yarim oy va yulduz musulmonlarning qutlug' ramzidir.

Gerbning markazida himmat, olijanoblik va fidoyilik timsoli bo'lgan afsonaviy Humo qushi qanotlarini yozib turibdi. Ushburamzvatimsollar xalqimizning tinchlik, yaxshilik, baxt-sodat, farovonlik yo'lida g'iorzu-umidlarini ifodalaydi.

Gerbning pastki qismida respublika Davlat bayrog'ini ifodalaydigan uchambar lentasining bandiga "O'zbekiston" deb yozib qo'yilgan.



DAVLAT Bayrog'i

O'zbekiston Respublikasi Davlat bayrog'ini to'g'risida gi qonun 1991 yil 18 noyabrda O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining navbatdantashqari o'tkazilgan VII sessiyasida qabul qilingan.

Davlat bayrog'ivauning ramzi bugungi O'zbekiston sarhadida qadim davlat bo'lgan davlatlar bilan tarixan bog'liqligini anglatadi hamda respublikaning milliy-madaniy an'alarini o'zida mujassamlashtiradi.

1. Bayroqdagi moviy rang tiriklik mazmuni aks etgan mangu osmon va obihayot ramzi. Timsollar tilida bu - yaxshilikni, donishmandlikni, halollikni, shon-shuhrat va sadoqatni bildiradi. Binobarin, Amir Temur davlati bayrog'ining rangi ham moviy rangda edi.
2. Bayroqdagi oq rang - muqaddas tinchlik ramzi bo'lib, u kun charog'onligi va koinot yoritqichlari bilan uyg'unlashib ketadi. Oq rang - poklik, beg'ubortlik, softlikni, orzu va hayollar tozaligi, ichki go'zallikka intilishning timsoli.
3. Yashil rang - tabiatning yangilanish ramzi. U ko'pgina xalqlarda navqironlik, umid va shodumonlik timsoli hisoblanadi.
4. Qizil chiziqlar - vujudimizda jo'shib oqayotgan hayotiy qudrat irmoqlarini anglatadi.
5. Navqiron yarim oy tasviri bizning tarixiy an'alarimiz bilan bog'liq. Ayni paytda u qo'lga kiritilgan mustaqilligimiz ramzi ham.
6. Yulduzlar barcha uchun ruhoni, ilohiy tismol sanalgan. O'zbekiston Respublikasi Davlat bayrog'idagi 12 yulduz tasviri ham tarixiy an'alarimiz, qadimgi yilnomamizga bevosita aloqador. Bizning o'n ikki yulduzga bo'lgan e'tiborimiz O'zbekiston sarhadidagi qadimgi davlatlar ilmiy tafakkurida nujum ilmi taraqqiy etganligi bilan ham izohlanadi. Davlat bayrog'imizdagi 12 yulduz tasvirini o'zbek xalqi madaniyatining qadimiyligi, uning komillikka, o'z tuprog'ida saodatga intilishi ramzi sifatida tushunish lozim.

"O'zbekiston Respublikasi Davlat gimniti 'g'risida" gi Qonun
1992 yil 10 dekabrda O'zbekiston Respublikasi Oliy
Kengashining XI Sessiyasida qabul qilingan.



DAVLAT MADHIYASI

Abdulla Oripov so'zi, Muta Burhonov musiqasi

Serquyosh huro'lkam, elgabaxt, najot,
Seno'zing do'stlargayo'ldosh, mehribon!
Yashnagay to'abadi mu'fan, ijod,
Shuhrating portasintokiborjahon!

Naqorat:

Oltin bu vodiylar - jon O'zbekiston,
Ajdodlarmardonaruhisengayor!
Ulug' xalqudratijo'shurganzamon
Olamni mahliyo aylagandiyor!
Bag'rikeng o'zbekning o'chmasi ymoni,
Erkin, yoshavlodlar sengazo'r qanot!
Istiqlol mash'ali, tinchlik posboni,
Haqsevarona yurt, mangubo'lobod!

Naqorat:

Oltin bu vodiylar - jon O'zbekiston,
Ajdodlarmardonaruhisengayor!
Ulug' xalqudratijo'shurganzamon
Olamni mahliyo aylagandiyor!

Faol so'z va birikmalarni tarjima qiling

joylashganligini

davlat tili

bayrog'i

pul birligi

qabul qilindi

nishonlanib kelinmoqda

makkajo'xori

yetishtiriladi

rivojlangan sohalardir

meva-sabzavotlar

yaylovlarda

muntazam

bilamiz

mustaqil davlat

madhiyasi

qurolli kuchlari

bayram sifatida

tan oldi

poliz mahsulotlari

boqiladi

qayta ishlash

paxta tozalash

qoramol

oltingugurt

qo'rg'on va qishloqlar
malaka oshirish

ijodiy meroslari
tajriba almashish

Matnni o'qing va savollarga javob bering

1. O'zbekiston Respublikasi qayerda joylashgan?
 2. O'zbekistonning poytaxti qayer?
 3. O'zbekistonning qanday davlat belgilari bor?
 4. O'zbekistonning yangi Konstitutsiyasi qachon qabul qilingan?
 5. O'zbekiston yoshlari qayerlarda ta'lim olayotirlar?
 6. Yoshlar chet ellarga nima uchun borishadi?
 7. O'zbekistonda yana qanday elat va millat vakillari yashaydi?
 8. O'zbeklar yana qaysi mamlakatlarda yashashadi?
 9. O'zbekistonda qanday tarixiy shaharlar bor?
 10. Sayohlar nima uchun tashrif buyurishadi?
 11. O'zbekistonlik qanday qomusiy allomalarni bilasiz?
 12. O'zbekistonda nechta viloyat, shahar, qo'rg'on va qishloq mavjud?
 13. Qanday yer osti boyliklari qazib olinadi?
 14. O'zbekistonda qanday ekinlar ekiladi? Yana nimalar yetishtirladi?
 15. O'zbekistonda qanday chorva mollari boqiladi?
 16. O'zbekiston qanday mamlakatga aylanmoqda?
 17. O'zbekistonda qanday sanoat korxonalar mavjud?
 18. O'zbekistonning tabiati qanday?
 19. O'zbekiston haqida yana nimalarni bilasiz?
 20. O'zbekiston qaysi davlatlar bilan chegaradosh?
- “ **Mustaqil O'zbekiston**” mavzusi bo'yicha klaster tuzing.

Buyuk allomalar



Alisher Navoiy

1441-1501

Navoiy ijodi O'zbek mumtoz adabiyotining eng yuksak bosqichidir. U ko'plab asarlar yozgan shoir. Alisher Navoiy o'zbek tili va adabiyotining dovrug'ini olamga yoydi. Shoirning avlodlarga qoldirgan eng buyuk obidalaridan biri "Hamsa" edi. "Hamsa"- beshlik degani. U besh mustaqil dostonidan tashkil topgan. Har bir doston muayyan mavzu, voqeani masnaviy yo'li bilan yoritib beradi. "Hamsa" yozish ma'lum tarix va ananaga ega. Sharq adabiyotida "Hamsa" yozishni boshlab bergan buyuk ozarbayjon shoiri Nizomiy Ganjaviy (1141-1209) bo'ldi. U 1173-1201 yillarda, 28- yil davomida besh dostonni o'z ichiga olgan "Besh hazina" dostonini yaratdi. Oradan yuz yil o'tgach, Hindistonda ota-bobolari asli shahrisabzlik turkiy qabilalardan bo'lgan Xusrav Dexlaviy (1253-1325) unga javob qildi. Abiyotda hamsachilik ana'nasi paydo bo'ldi va u mahorat maydoniga aylandi.



Zahiriddin Muhammad Bobur

1483-1530

Temurylar avlodining yirik bir xalqasini tashkil etgan. Zahiriddin Muhammad Boburga podsholik martabasi juda erta nasib etgan. Oz yurtiga sigmay "oyog etgan" ketishga majbur bolgan. Avval Avgoniston songroq Hindistonini zabt etib, musofrchilikda shoh taxtini egalladi.

Hozirgacha ilim hazinasiga kelib qoshilgan asarlari bor . Ular –uncha tolliqliq bolmagan bir davoni, islom dinini asoslarni bayon etuvchi “Muboyin” nomli sheriy risolasi, “Volidiya” nomli kitobchanning sheriy risolasi, ‘Bolida’ nomli kitobchanning sheriy tarjimasi , o`zi ixtiro qilgan ‘Xatti Boburiy’ nomi bilan mashhur alifbo jadvali, ‘Boburnoma’ asari. Bobur Agra shahrida vafot etgach, jasadi vaqtinchalik Nurafshon bog`iga qo`yilgan, keyinchalik uning vasiyatiga bilan xoki Qobulda ‘Bog`I Bobur’ ga qo`yilgan.

Berilgan hikmatlarning ma'nolarini sharhlang.

Har bir kishi kasb – korini mukammal bilmog'i, yaxshi tarbiya olmog'i va yaxshi xulq – atvor, fazilatlarga ega bo'lmog'i kerak.

*Inson gunoh va xato qilishi mumkindir,
Gunoh vaxatoni tushinib, tuzatgan saodatli odamdir.*

* * *

*Ertalab turganda o'zingdan so'ra: “Bugun nimalar qilishim kerak!”
Kechqurin yotganda o'zingdan so'ra: “Bugun nimalar qildim?” deb*

* * *

*So'zni o'ylab so'zla -- yasha qayg'usiz.
Bekor berma vaqtni - chekmaysan afsus.
Gerdayma ko'p ortiq – olqish olasan.
Xasis bo'lma also - qarg'ish olasan.*

* * *

*Sadoqatli xodim jigari - joningdek,
Jigardan ham yaqin, yurak qoningdek.*

* * *

*Suyukli bo'ladi ochiq dil kishi,
Dili toshning qarg'ish qozonmoq ishi.*

* * *

*Elga bosh bo'layin desang, toabad,
Odil bo'l, elingni asragin faqat.*

* * *

*Yaxshiga yaxshi bo'l, yomonga yomon,
Gullarga gul bo'lgin, tikonga tikon.*

Quyida berilgan matnni o'qing va matnda berilgan so'z turkumlarini topib, alohida ajratilgan holda, daftarlaringizga ko'chiring. So'z yasovchi, so'z o'zgartiruvchi, shakl o'zgartiruvchi qo'shimchalarni topib tagiga chizing.

Tildagi har bir so'z, uning har bir shakli inson tafakkuri va tuyg'usining natijasi bo'lib, uning yordamida bu tafakkur va tuyg'ular orqali Vatan va xalq tarixi ifodalanadi.

Bugungi kunda o'zbek tiliga asosan bevosita uning o'z milliy tabiatiga xos qonuniyatlardan kelib chiqilgan holda tadqiq etilmoqda.

Mustaqillik davrida xalqimiz xalqarohamjamiyatning teng huquqli a'zosiga aylanganidan keyin turli davlatlarda "O'zbekiston" nomi borgan sari dadilroq sado beradi. Milliy tilda yaratilgan madhiyamiz jahon maydonlarida jaranglamoqda. Boshqa xalqlarda o'zbek tilini o'rganishga qiziqish kuchaymoqda. O'zbek kurashi vositasida Yer yuzining deyarli barcha qit'alarida "yonbosh", "chala", "halol" degan o'zbekcha so'zlar mustahkam amaliyotga kirdi. Bular - tilimiz istiqbolining xayrli darakchilaridandir.

O'zbek tili aslida dunyoning boy va qudratli tillaridan biridir. Uni jahonda Ahmad Yassaviy tili, Navoiy tili, Bobur tili sifatida bilishadi. Bu tilhozirgi zamon o'zbek adiblari va shoirlari tomonidan yanada takomillashtirilmoqda.

Siyosat, iqtisodiyot, ilm – fan va boshqa sohalarning ruvoji ham tilimizning rivojini rag'batlantiruvchi manbalaridir.

Ona tilixalqning boyligi va borligi, millatning ruhidir! Xalq rivojlanar ekan, til ham, shak – shubhasiz, rivojlanib boradi. Bu yo'lda uni hech narsa to'xtatib qola olmaydi.

Quyida berilgan fikrlarni tahlil qiling:

Jamiki ezgu fazilatlar inson qalbiga avvalo ona allasi, ona tilining betakror jozibasi bilan singadi Ona tili - bu millatning ruhidir.

I.Karimov.

Tilda uni nomlovchi so'z bo'lmasa, shunday so'zni qo'shni tildan olish mumkin. Ammo tilda mavjud so'zlar o'rniga boshqa so'zni qo'llash zararlidir.

M. Qashg'ariy

Ko'ngil mahzanining qulfi til va ul mahzanning kalidin so'z bil!

A. Navoiy

Juda boy chiroyli tilimiz bor. Bu tilda ifoda etib bo'lmaydigan fikr tuyg'u yo'q!

A. Qahhor.

Hikmatli so'zlarni daftarlaringizga ko'chirib yozing.

Buyuk ipak yo'li.



Buyuk ipak yo'li Sharq G'arbni bog'lovchi, turli mamlakatlarning savdo-sotiq, tijorat aloqalarining eng asosiy vositasi bo'lgandan, bu yo'nalishda joylashgan davlatlar undan o'z manfaatlarini yo'lida foydalanishga yohud bu borada o'z mavqeini mustahkamlashga intilganlar. Shu bois turli tarixiy bosqichlarda turli davlatlar bunga intilib, Buyuk ipak yo'li ustidan o'z nazoratlarini o'rnatganlar. Masalan, mil.av. VI-IV asrlarda Eron ahmoniylari, mil.av. IV asrda esa

makedoniyalik Iskandar, mil.av. II-I asrlarda Rim Parfiya davlatlari o`rtasida bu borada qattiq raqobat ketdi. Yohud arab xalifaligi vujudga kelgunga qadar bu yo`lning Eron va Sug`diyona hududlaridan o`tgan qismida Eron va Sug`d savdogarlari yetakchilik rolini o`ynaganlar. Arab halifaligi kuchayib, ko`plab hududlarni qo`lga kiritgach, bu yo`l arab savdogarlari tasarrufiga o`tadi. Chingiziylar davrida Buyuk ipak yo`lining tasarrufida butunlay ularning qo`l ostida bo`lgan. Buyuk sohibqiron Amir Temur davriga kelib uning qudratli saltanati vujudga kelgach, Buyuk ipak yo`li sarhadlari yangidan kengayib, katta miqyoslar kasb etib, yanada rivoj topadi.


Vatanimiz sarhadlari ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy yuksalishining Buyuk ipak yo`li bilan bevosita bog`liqlik jihatlari juda qadim zamonlarga borib taqaladi. Yunon-Rim olimlari Gerodot, Ktesiy, Arrian ma`lumotlariga, Eron mixxat yozuvlariga asoslanib fikr yuritadigan bo`lsak, mil.av. IV asrda O`rta Osiyo hududlarida sug`orma dehqonchilik madaniyati, hunarmandchilik, chorvachilik, tog`-kon ishlari ancha rivoj topgan. O`rta Osiyo la`li Xorazmning qimmatbaho feruza ma`dani, Sug`d oltini ko`plab miqdorda qazib olinib, ishlov berilib, xorijiy ellarga ham chiqarilgan. Jumladan, O`rta Osiyo la`liga (lazuriti) Eron, Hindiston, Misr, Mesopatamiya va Xitoy singari mamlakatlarda qiziqish va talab g`oyatda katta bo`lgan. Mil.av. II asr boshlarida Davan va Qang` davlatlariga tashrif buyurgan Xitoy elchisi va sayyohi Chjan Szyan safaridan so`ng Xitoy bilan O`rta Osiyo davlatlari o`rtasidagi diplomatik va sado-sotiq aloqalari yangi bosqichga ko`tariladi. Elchining bu yurtda ko`rgan-kechirganlari. Ayniqsa, uzumchilik, vino-tayyorlash, rangli shishalar ishlab chiqarish, zargarlik, zotdor, uchqur otlar Xitoy hukmdorlarini qiziqtirgan. Bu esa ikki o`rtadagi aloqalarga keng yo`l ochgan. Xitoy O`rta Osiyoning zotdor otlari, rangli shishalari, zargarlik mollari, la`liga xaridor bo`lsa, ayni chog`da Xitoydan ko`proq ipak va ipak mollari, chinni buyumlar, choy mahsulotlar keltirila boshlagan. Shuningdek, Yaponiyadan gurunch, Hindistondan ip gazlama, ziravor va dorivor mahsulotlar, mushk anbar va shu kabi narsalar keltirilgan


O'zbekistonda ta'lim tizimi

O'zbekiston Respublikasining ta'lim tizimi quyidagilardan iborat:

- davlat ta'lim standartlariga muvofiq ta'lim dasturlarini amalga oshiruvchi davlat va nodavlat ta'lim muassasalari;
- ta'lim tizimi ishlashi va rivojlanishi uchun kerakli tadqiqot ishlarini olib boruvchi ilmiy-pedagogik tashkilotlar;
- ta'lim sohasidagi davlat boshqaruv organlari shuningdek ular boshqaruvi ostidagi korxonalar, muassasalar va tashkilotlar.

O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimi yagona va yaxlitdir.





O'zbek tili - davlat tili

O'zbekiston Respublikasining “Davlat tili haqida”gi Qonuni 1989- yil 21- oktyabrda qabul qilingan. Shu davrdan boshlab har yili bu kunni til bayrami sifatida nishonlaymiz.

Mustaqillik sharofati bilan O'zbek tili - davlat tiliga e'tibor kuchaydi, ona tilimizning ijtimoiy mavqeyi kengaydi. O'zbek tilining taraqqiyoti va istiqboli to'g'risida hamkorlik qilinib bir qancha qarorlar qabul qilindi.

1993-yil 2-sentiyabirda “Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risida” Qonun qabul qilinishi Vatanimizning ma'naviy - madaniy hayotiga jahonshumul ahamiyat kasb etdi. Yangi alifboga kiritilgan o'zgarishlar asosida “O'zbek tilining asosiy imlo qoidalari ishlab chiqildi va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan 1995-yil 24-avgustda tastiqlandi.”

Davr taqozasi bilan “Davlat tili haqida”gi Qonunga ham ayrim o'zgarishlar kiritildi va 1995-yilning 21-dekabrda O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirda “Davlat tili haqida”gi Qonunni e'lon qilindi. Bu qonun 24 moddadan iborat bo'lib, uning 1- moddasida asosiy qonunimiz bo'lgan Konstitutsiyamizning 4- moddasida yozilganidek, “O'zbekiston Respublikasining davlat tili o'zbek tilidir”, deb yozib qo'yilgan.

O'zbek tilida to'g'ri ifodali so'zlash va yozish, ona tilimizning sofliigi va boyligi to'g'risida tinmay g'amxo'rlik qilish, uning is'temol doirasini kengaytirib borish davlatimiz fuqarolarining burchi sanaladi. Xususan, har bir yosh va talabalar o'z ona tilidagi so'z boyligini oshirish hamda til imkoniyatlaridan o'rinli foydalanishga doimo harakat qilishi lozim. So'z fikr qurolidir, kishi qanchalik ko'p so'z bilsa, uning fikrlash doirasi, dunyoqarashi ham shunchalik keng bo'ladi.

O'zbek tiliga Davlat tili maqomining berilishi faqat o'zbeklar uchungina emas, balki Respublikamiz hududida yashayotgan barcha millat vakillari uchun ham katta ahamiyatga ega sanaladi. Agar "Davlat tili haqida"gi qonun bandlarini o'zga millat va elat vakillariga singdra olmasak, ularning dillarida tilimizning go'zal imkoniyatlariga tabiiy mehr - muhabbat uyg'ota olmasak, o'zbek tilining, millatlararo muomala tili mavqega ko'tarilishi qiyin.

Matnni oqing va rus tiliga og'zaki tarjima qiling.

Fan va amaliyot

Zamonaviy madaniyatni texnikaviy, texnika hukmdorligi, dunyoviy-elektron yoki axborot madaniyati deb ataydilar. Bunday munosabat hozirgi madaniyatda fan va texnikaning o'rne muhimligini ko'rsatadi. «Zamonaviy» yoki «Yangi» fan antik yoki o'rta asrlardagi fandan tubdan farq qiladi. Agar, ilgari fan dunyoni asl holda, unga dahlsiz o'rgangan bo'lsa, endi esa, fan bilish, yaratish, ixtiro, loyiha tuzish kabi jarayonlarni mujassamlashtirib «inson idroki yordamida hal bo'ladigan muammolarga e'tiborini jalb qilmoqda». Hozirgi fanning jo'shqin qiyofasi mana shundan iborat. Haqiqatni anglashga urinish o'rniga insonning qiziqish va ehtiyojlari mos keluvchi aniq imkoniyatlarni hisobga olish harakati ustun bo'lmoqda.

Fan va madaniyatdagi yangi yo'nalish shakllanishining boshlanishi Uyg'onish davri bilan bog'liq. (XIV-XVI asrlar). Uyg'onish-Evropaning madaniyati

taraqqiyotidagi muhim davr bo'lib, davriy jihatdan o'rta asrlarga mansub. Biroq, bu davr mutlaqo yangi madaniyat bosqichini ochdi. Shaharlar ko'payishi, Evropada ichki va tashqi savdoning vujudga kelishi, hunarmandchilikning rivojlanishi Evropa madaniyatida yangi yo'nalishlarning paydo bo'lishiga olib keldi. Qisqa vaqt ichida o'rta asrlar jamiyatida moddiy madaniyat va texnologiyalar o'zgarib ko'plab muhim ilmiy kashfiyotlar qilindi. Buyuk geografik kashfiyotlar diniy «dunyo qiyofasini» o'zgartirdi, aqliy va iqtisodiy hududni kengaytirib jahon savdosini vujudga kelishiga sabab bo'ldi. Antik davr merosini o'rganish yangi falsafiy yo'nalishlar paydobo'lishiga turtki bo'lib inson va tabiatning o'zaro munosabatlarida mutlaqo o'zgacha andoza shakllandi.

Jamiyatdagi shaharliklar orqasida «gumanizm» deb nomlanuvchi yangi g'oya shakllandi. Bu nom inson haqidagi yangi dunyoviy fandan (studia humanitatis) kelib chiqqan bo'lib, ilgarigi «ilohiyat haqidagi fanni» (studio divinus) asta-sekin siqib chiqardi. Insonparvarlik g'oyasi quyidagi xususiyatlarga ega:

1. Tabiat qonunlarini –“tabiiy-muvofiq» tamoyili asosida tushuntirishga asoslanish;
2. Insonni muammolar markazi qilib olish (antroposentrizm) – insonga tabiatning toji sifatida qarash;
3. Aqliy tafakkur (Rasionalizm)-insonidrok va zakovat orqali atrof muhitni, o'z-o'zini biladi deb

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. A.Hojiyev. O'zbek tiliningimlo lug'ati. Toshkent. 1995 –yil.
2. O'zbek tili faol so'zlarining izohli lug'ati. Toshkent. 2000-yil.
3. O'zbek tili sinonimlarining izohli lug'ati. Toshkent. 1984-yil.
4. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. Toshkent. 2002-yil.
5. Yusuf Xos Hojib . Qutadg'u bilig. Toshkent, 1990 -yil.
6. Qahhorova H., Hasanova N., Fattohova D., Egamberdiyeva N. O'zbek tilidan talabalarning og'zaki nutqini o'stirish uchun matnlar. –Toshkent: Universitet-2004.

MUNDARIJA

1.	Kirish	
2.	Mustaqil O'zbekiston	
3.	Buyuk allomalar.Alisher Navoiy	
4.	Zahiriddin Muhammad Bobur	
5.	Buyuk ipak yo`li.	
6.	O'zbek tili - davlat tili	
7.	Fan va amaliyot	

QURBANOVA YULDUZXON ILXAMOVNA

**O'ZBEK TILI FANIDANMUSTAQIL
ISHLARNI BAJARISH VA TASHKIL QILISH**

(1-bosqich rus guruh talabalari uchun)

(uslubiy ko'rsatma)

Muharrir: M. Nurtoyeva

Musahhih:

N. Abdurahmonova

Bosishga ruxsat etildi _____ Qog'oz o'lchami 60x84 1/16

Hajmi 1,5 bosma taboq 15 nus'xa buyurtma № _____

TIMI bosmaxonasida chop etildi.

Toshkent-100000. Qori Niyoziy ko'chasi 39 uy.